УДК 332.122:330.332(575.15)

FARG‘ONA VILOYATIDAGI ERKIN IQTISODIY ZONALARNING INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI: TENDENTSIYALAR, MUAMMOLAR VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI
(«Qo‘qon» EIZi misolida)

Yuldashev Azimjon Komilovich
Turon Turk Farg‘ona MChJ rahbari,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. *Maqolada Farg‘ona viloyatidagi erkin iqtisodiy zonalarning investitsiyalarni jalb etish va mintaqaviy iqtisodiy o‘sishga ta’siri «Qo‘qon» EIZ misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq imtiyozlari va preferensiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta’siri hamda zona samaradorligini baholash masalalari o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, 2018–2023 yillarda viloyatga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 90 mln dollardan 1,3 mlrd dollarga yetgan. «Qo‘qon» EIZida 370 mln dollarlik 100 ta loyiha amalga oshirilib, 9 mingta ish o‘rni yaratilgan. Shu bilan birga, eksport ulushining pastligi, infratuzilma rivojlanishidagi nomutanosiblik va mahalliy tarmoqlar bilan integratsiyaning sustligi asosiy muammolar sifatida aniqlangan. Tadqiqot yakunida eksport salohiyatini oshirish, mahalliy integratsiyani kuchaytirish va monitoring tizimini raqamlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *erkin iqtisodiy zona, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, «Qo‘qon» EIZi, soliq imtiyozlari, investitsiya samaradorligi, tarmoq integratsiyasi, Farg‘ona viloyati, eksport salohiyati.*

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) xorijiy investitsiyalarni jalb etish, texnologiya transferini ta'minlash va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish vositasi sifatida tobora keng qo‘llanilmoqda. Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, to‘g‘ri shakllantirilgan EIZ siyosati davlat iqtisodiy o‘sishiga tizimli hissa qo‘sha oladi. Biroq bir qator mamlakatlarda, jumladan rivojlanayotgan davlatlarda, EIZlardan kutilgan samaraga erishilmayotganligi ham kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida erkin iqtisodiy zonalar tizimi sezilarli kengaytirildi. 2024 yil yakuniga ko‘ra mamlakatda 22 ta yirik EIZ va 742 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda, ularda 4 000 dan ortiq korxona ro‘yxatdan o‘tgan. Farg‘ona viloyatida joylashgan «Qo‘qon» EIZi mintaqa investitsiya muhitini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi.

Ayni vaqtda EIZ faoliyatining real samaradorligi, xususan eksport yo‘naltirilganligi va mahalliy iqtisodiyot bilan integratsiyasi masalasi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqola shu muammoni empirik tahlil orqali o‘rganishga bag‘ishlangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

EIZ nazariyasining ilmiy asoslarini shakllantirish borasida Farole va Akinci [1] ning tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi. Mualliflar EIZ samaradorligini ta'minlovchi omillar sifatida investitsiya muhitining sifati, infratuzilma darajasi, boshqaruv tizimining samaradorligi va mahalliy iqtisodiyot bilan tarmoq aloqalarini ajratib ko‘rsatadi. Zeng [2]

ning tadqiqotlari esa Xitoy va Afrika mamlakatlari tajribasi asosida EIZlarning iqtisodiy o‘sishga ta'sirini qiyosiy tarzda tahlil qilar ekan, siyosat institutsionallashuvi va tartibga soluvchi muhitning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Frick va Rodriguez-Pose [3] maxsus iqtisodiy zonalar va mahalliy iqtisodiyot o‘rtasidagi yetkazib berish zanjiri integratsiyasini o‘rgangan holda ko‘p mamlakatlarda bu integratsiya hali ham «xayoliy ulush» darajasida qolayotganini isbotlaydi. Ushbu xulosa O‘zbekiston EIZlaridagi 372 ta korxonaning umuman eksport qilmasligi holati bilan uyg‘unlashadi.

O‘zbekiston kontekstida Kuzieva [4] ning tadqiqoti EIZ soliq rejimi xususiyatlarini tahlil qilib, imtiyozlar tizimining potensial samaradorligini asoslaydi. Juraev [5; 6] EIZlarga TXI jalb etishni cheklovchi omillarni iqlimiy-geografik nuqtai nazardan o‘rganib, boshqaruv sifati va infratuzilma omillarini ustuvor belgilaydi. Ugli [7] esa Uzbekistondagi EIZlarda TXI va boshqaruv sifatining samaradorlikka ta'sirini regresion tahlil asosida o‘rganib, TXI koeffitsienti 0,45 ekanligini aniqlagan.

Yuqoridagi tadqiqotlar EIZ samaradorligini baholashda yagona metodologik tizim zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish ushbu maqolaning asosiy ilmiy maqsadini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanilgan:

1. Tavsifiy statistika tahlili — 2018–2023-yillar davomida Farg‘ona viloyatiga yo‘naltirilgan TXI hajmining dinamik tahlili;
2. Qiyosiy tahlil — EIZ rezident korxonalari ko‘rsatkichlarini viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan solishtirish;
3. Tizimli tahlil — EIZ faoliyatining eksport salohiyati va mahalliy tarmoq integratsiyasiga ta'sirini baholash;
4. Muammo-yechim tahlili — tizimiy to‘siqlarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ma'lumot manbalari sifatida O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy hisobotlari[8], Farg‘ona viloyati hokimligi ma'lumotlari, AQSh Davlat departamentining 2024 yilgi investitsiya iqlimi to‘g‘risidagi hisoboti [8], Times of Central Asia axborot agentligi [9], Spot.uz [10; 11] va Gazeta.uz [12] ning tahliliy materiallari qo‘llanilgan. Barcha raqamli ko‘rsatkichlar tashqi manbalarda e'lon qilingan rasmiy statistika asosida shakllantirilgan.

TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

Farg‘ona viloyatidagi TXI dinamikasi

So‘nggi yillarda Farg‘ona viloyatida investitsiya muhitining sezilarli yaxshilanishi kuzatilmoqda. 2018-yilda viloyatga 90 million dollar TXI jalb etilgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 1,3 milliard dollarga yetgan — ya'ni 14,4 barobarga oshgan [9]. Bu o‘sish O‘zbekistondagi islohotlar va maxsus iqtisodiy imtiyozlar tizimining samarali ta'sirini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, 2024-yilda 1,8 milliard dollar, 2025 yilda 3,0 milliard dollar, 2026 yilda 4,0 milliard dollar kutilish viloyatga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi ijobiy tendentsiya saqlanib qolmoqda [12]. Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga yalpi

hududiy mahsulot 2017 yildagi 7 mln so‘mdan 2025 yilga kelib 26,6 mln so‘mga, ya'ni 3,8 barobarga o‘sdi [11].

«Qo‘qon» EIZining investitsiya samaradorligi

«Qo‘qon» erkin iqtisodiy zonasi Farg‘ona viloyatidagi investitsiya oqimlarini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynamoqda. Mavjud ma'lumotlarga ko‘ra, EIZda jami 370 million dollarlik 100 ta loyiha amalga oshirilgan va bu orqali 9 000 ta yangi ish o‘rni yaratilgan [9]. Bundan tashqari, zona hududida yiliga 1,5 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilmoqda.

2024-yilda «Qo‘qon» EIZining hududi Quvasoy shahri hisobiga 210,4 gektarga kengaytirildi [12]. Yangi kengaytirilgan hududda jami 1 milliard dollarlik 185 ta loyihani joylashtirib, taxminan 12 000 ta ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan. Bu kengayish EIZning mintaqa iqtisodiyotidagi rolini yanada mustahkamlaydi.

Farg‘ona viloyatida EIZ faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida maxsus soliq rejimi ham joriy etilgan: Qo‘qon hamda qo‘shni hududlardagi muayyan territoriyalarda korporativ daromad solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i va aylanma solig‘i stavkasi 1%ga tushirilgan [8]. Mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanish solig‘iga esa 0,1 koeffitsienti qo‘llanilmoqda.

Tizimliy muammolar: eksport va tarmoq integratsiyasi

Investitsiya oqimlarining o‘sishiga qaramay, O‘zbekiston EIZ tizimida bir qator tizimiy muammolar saqlanib qolmoqda. 2024 yil ma'lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi 22 ta EIZda ishga tushgan 589 ta korxona 42 trillion so‘mlik mahsulot chiqargan, biroq bu mahsulotning atigi 18%i tashqi bozorlarga sotilgan [10]. Yanada muhimi, 372 ta korxona umuman eksport faoliyatini olib bormagan.

Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat 16%i yuqori texnologiyali tovarlar hisoblanadi [10]. Bu ko‘rsatkich EIZlarning hali qo‘shimcha qiymatni yaratish va texnologik transformatsiyani ta'minlash nuqtai nazaridan to‘liq salohiyatidan foydalana olmayotganini anglatadi.

Mahalliy tarmoq integratsiyasining zaifligi ham muhim muammo bo‘lib qolmoqda. EIZ rezident korxonalari mahalliy yetkazib beruvchilar bilan rasmiy aloqalarni o‘rnatish o‘rniga ko‘proq import qilingan xom ashyo va komponentlarga tayanmoqda. Bu holat EIZ ning iqtisodiy samaradorligini oshirishda asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

EIZ ishtirokchisi xorijiy korxonalar malakali muhandis texnologlarni O‘bekistonda yashash va ishlash vizalarini rasmiylashtirishda ham kichik bo‘lsada muammolar mavjud.

Infratuzilma rivojlanishining notekisligi ham e'tiborga loyiq. Yangi kengaytirilgan hududlarning bosh rejasi hali ishlab chiqilish bosqichida bo‘lib, tender savdolari davom etmoqda [12]. EIZni kengaytirilgan yer maydonlariga yangi investorlarni jalb etish lozim bo‘ladi.

1-jadval. «Qo‘qon» EIZi va Farg‘ona viloyatining asosiy investitsiya ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	2018 yil	2023 yil	O‘sish
1	Farg‘ona viloyatiga TXI (mln. dollar)	90	1 300	14,4 baravar

№	Ko‘rsatkich	2018 yil	2023 yil	O‘sish
2	«Qo‘qon» EIZida amalga oshirilgan loyihalar	—	100 ta loyiha	$370 mln
3	«Qo‘qon» EIZida yaratilgan ish o‘rinlari	—	9 000 ta	+9 000
4	O‘zbekiston EIZ korxonalari sanoat mahsuloti (2024)	—	42 trln so‘m	+43,9% (2024)
5	EIZ korxonalarining eksport ulushi	—	18%	82% — ichki bozor

Manba: [8; 9; 10; 11; 12] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida «Qo‘qon» EIZi va Farg‘ona viloyatidagi erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Eksportga yo‘naltirilgan ixtisoslashuvni kuchaytirish

Hukumat tomonidan 2025 yilda e'lon qilingan yangi yo‘nalish — faqat eksportga ishlaydigan EIZlar tashkil etish — to‘g‘ri strategik qaror hisoblanadi [10]. «Qo‘qon» EIZida ham eksportchi korxonalar uchun qo‘shimcha imtiyozlar (soliq solish rejimini yanada yengillashtirish, eksport bojlari imtiyozlari) joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, Singapurlik Indorama kompaniyasi bilan hamkorlikdagi mineral o‘g‘itlar zavodi kabi yirik eksport loyihalari uchun alohida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilishi lozim.

Mahalliy tarmoq integratsiyasini rag‘batlantirish

EIZ rezident korxonalari uchun mahalliy xaridlar kvotasini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Dastlabki bosqichda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar uchun mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik shartnomalari tuzish majburiyati belgilanishi, ikkinchi bosqichda esa bu ulushning yil sayin o‘sishi ko‘zda tutilishi lozim. Bu chora mahalliy SMB sektorini EIZ zanjirlariga integratsiya qilish imkonini beradi.

Infratuzilmani ustuvor rivojlantirish

Yangi kengaytirilgan 210,4 gektarlik hudud uchun bosh rejani ishlab chiqish muddatlarini qisqartirish va infratuzilma investitsiyalari (transport, energetika, suv ta'minoti) ni ustuvor tartibda moliyalashtirish tavsiya etiladi. Ayniqsa, 2026 yilgacha 1 milliard dollarlik investitsiya o‘zlashtirilishi rejalangan yangi hududda yetarli infratuzilmasiz bu maqsadga erishish qiyin bo‘lishi mumkin.

Raqamli monitoring tizimini joriy etish

EIZ rezidentlari faoliyatini baholash uchun standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi (KPI) va raqamli monitoring platformasi yaratish zarur. Ayniqsa eksport ulushi, mahalliy xaridlar ko‘rsatkichi, ish o‘rinlari sifati va investitsiyalar rentabelligi — har chorakda avtomatik tarzda hisoblab, ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilinishi lozim. Bu shaffoflikni oshirib, yangi investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

2-jadval. EIZ tizimiy muammolari va tavsiya etilgan chora-tadbirlar

Muammo	Sababi	Tavsiya etilgan chora
Eksport faolligining pastligi (18%)	EIZ rezidentlari asosan import o‘rnini bosish strategiyasiga yo‘naltirilgan	Eksportga ixtisoslashgan EIZ tashkil etish
Mahalliy tarmoq integratsiyasining zaifligi	Mahalliy yetkazib beruvchilar bilan aloqalar rasmiy tizimda qayd etilmaydi	Mahalliy xaridlar kvotasini joriy etish mexanizmi
Infratuzilmaning notekis rivojlanishi	Yangi kengaytirilgan hududlar uchun bosh reja hali ishlab chiqilmoqda	Bosh rejani tezlashtirish va infratuzilma investitsiyalarini ustuvorlash
Monitoring tizimining etarli emasligi	Rezidentlar faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari standartlashtirilmagan	Raqamli monitoring platformasini joriy etish

XULOSA

Xalqaro maydondagi vaziyatni tez o‘zgaruvchanligi, mamlakatimizda islohotlarni tezkorlik bilan amalga oshirisni talab etmoqda/

Ushbu tadqiqot Farg‘ona viloyatidagi erkin iqtisodiy zonalar, xususan «Qo‘qon» EIZining investitsiya faolligiga ta'sirini kompleks tahlil qilib, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

5. 2018–2023 yillar davomida Farg‘ona viloyatiga yo‘naltirilgan TXI 14,4 barobarga oshib, 90 million dollardan 1,3 milliard dollarga yetgan. Bu o‘sishda EIZ siyosati va maxsus soliq imtiyozlari muhim rol o‘ynagan.

6. «Qo‘qon» EIZi 100 ta loyiha ($370 mln), 9 000 ish o‘rni va 1,5 trillion so‘mlik yillik mahsulot ko‘rsatkichlari bilan mintaqaning investitsiya markazi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

7. Biroq tizimiy muammolar — ishlab chiqarilgan mahsulotning 18% eksport qilinishi, 372 ta korxonaning umuman eksport faoliyati olib bormasligi — EIZlarning hali to‘liq salohiyatidan foydalana olmayotganini ko‘rsatmoqda.

8. Eksportga ixtisoslashgan EIZ modeli joriy etish, mahalliy tarmoq integratsiyasini rag‘batlantirish va raqamli monitoring tizimini shakllantirish — bu muammolarni hal etishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi EIZ siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar sifatida qo‘llanilishi, shuningdek mintaqaviy iqtisodiyot va investitsiya menejmenti bo‘yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Farole T., Akinci G. Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions. — Washington: World Bank, 2011. — 319 p.

2.Zeng D.Z. Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa // World Bank Policy Research Working Paper. — 2015. — No. 7240.

3.Frick S., Rodriguez-Pose A. Special Economic Zones and Sourcing Linkages with the Local Economy: Reality or Pipedream? // European Journal of Development Research. — 2022. — Vol. 34(2). — P. 655–676. DOI: 10.1057/s41287-021-00374-4

4.Kuzieva N.R. O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalari: rivojlanish, faoliyat va soliq rejimining xususiyatlari // Arxiv nauchnyx issledovaniy. — 2020. — №24.

5.Juraev Z. Spatial Study of Factors Affecting FDI into FEZs in Uzbekistan. — SSRN 4322377. — 2023.

6.Juraev Z., Ahn Y.-J. Factors Limiting Foreign Direct Investment in Free Economic Zones of Uzbekistan // International Journal of Management Research & Economics. — 2023. — Vol. 3(2). — P. 17–33.

7.Ugli O.N.O. Foreign Investment and Governance Shaping SEZ Performance in Uzbekistan // American Journal of Economics and Business Management. — 2024. — Vol. 7(10). — P. 755–764. DOI: 10.31150/ajebm.v7i10.2954

8.O‘zbekiston Respublikasi 2024 yilgi Investitsiya iqlimi to‘g‘risidagi hisobot / AQSh Davlat departamenti. — Washington, 2024. — URL: https://2021-2025.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/

9.Times of Central Asia. New Projects Launched in Uzbekistan's Fergana Region. — 2023. — URL: https://timesca.com/new-projects-launched-in-uzbekistans-fergana-region/

10. Spot.uz. O‘zbekistonda eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalar. — 2025 yil, 17 yanvar. — URL: https://www.spot.uz/oz/2025/01/17/export-stimulation/

11. Spot.uz. Farg‘onada $8,2 mlrdlik yangi investitsiya loyihalari paketi shakllantirildi. — 2026 yil, 4 fevral. — URL: https://www.spot.uz/oz/2026/02/04/economy-ferghana

12. Gazeta.uz. Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yig‘ilishi.— 2024-yil, 3-dekabr. — URL: https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/03/ferghana/